HUDUDIY IQTISODIY TIZIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY TUZILMALARI.....	737
Umarov Oqil Omiljonovich	
MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARINING FOND BOZORIDAGI INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	742
Yuldashev Fozil Turapovich	
MAKROIQTISODIY MUVOZANATNI MODELLASHTIRISHDA MATEMATIK USULLARNING TATBIQI VA PROGNOZLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	749
Abdiraimov Abbos Xolmurodovich	
ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....	756
Мирзамухамедова Шахзода Акмалжон кизи	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH.....	762
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СОСТОЯНИЙ ЧЕЛОВЕКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИМИ ОБОРОТАМИ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	766
Жумаев Шавкат ХХХ	
SUV XO'JALIGI SOHASIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	769
Dilshod Pulatov, Dildora Mirzaeva	
МЕТОДЫ СБОРА И АНАЛИЗА ДАННЫХ ДЛЯ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЦИФРОВЫХ ИНВЕСТИЦИЙ.....	776
Каракулов Фарход Зайпудинович	



НЕФОРМАЛЬНАЯ ЗАНЯТОСТЬ И ТЕНЕВАЯ СТОРОНА ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ ВЫЗОВОВ И ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕР ПО ЛЕГАЛИЗАЦИИ	782
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	787
Xalikov Akmal Xolboyevich	
TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI	793
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
RAQOBATBARDOSH MUHITDA INNOVATSION MENEDJMENTNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	799
Siddikov Askar Axrorovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI	803
Isakova Naima Ikromjonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	809
Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi	
MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	813
Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna	
SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	818
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	826
Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	830
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOJ-TARIF SIYOSATINI METODOLOGIK TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI	837
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA)	844
Bekmetov Xursandbek Ilxamovich	
SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI	857
Achilova Firusa Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Masharipov Ravshan Rajabboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada turizm sohasida DXSH loyihalarini boshqarishda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals — SDGs) konsepsiyalarining o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida ESG va SDGs konsepsiyalarining turizm sohasidagi DXSH loyihalarini barqarorligi, investisiya jozibadorligi hamda ijtimoiy-ekologik samaradorligini oshirishdagi roli asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur konsepsiyalarni DXSH loyihalarini boshqarish mexanizmlariga integratsiya qilish zarurati ilmiy jihatdan asoslanib, ularning o'zaro uyg'unligi loyihalarni samarali va uzoq muddatli rivojlantirishning muhim omili ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, davlat–xususiy sherikligi, ESG, SDGs, barqaror rivojlanish, loyiha boshqaruvi, investisiya jozibadorligi.

Abstract. This scientific article examines the interrelation between ESG (Environmental, Social, Governance) principles and the Sustainable Development Goals (SDGs) in the management of public–private partnership (PPP) projects in the tourism sector. The study substantiates the role of ESG and SDGs in enhancing the sustainability, investment attractiveness, and socio-environmental efficiency of PPP projects in tourism. Particular attention is paid to the integration of ESG principles and SDGs into PPP project management mechanisms, which is considered a key factor in ensuring long-term sustainability and effective project implementation.

Key words: tourism, public–private partnership, ESG, SDGs, sustainable development, project management, investment attractiveness.

Аннотация. В данной научной статье анализируется научная, теоретическая и практическая взаимосвязь между принципами ESG (экологические, социальные, управленческие факторы) и концепциями Целей устойчивого развития (ЦУР) в управлении проектами государственно-частного партнерства (ГЧП) в туристическом секторе. Исследование обосновывает роль концепций ESG и ЦУР в повышении устойчивости, инвестиционной привлекательности и социально-экологической эффективности проектов ГЧП в туристическом секторе. Также научно обосновывается необходимость интеграции этих концепций в механизмы управления проектами ГЧП и показывается, что их взаимная совместимость является важным фактором эффективного и долгосрочного развития проектов.

Ключевые слова: туризм, государственно-частное партнерство, ESG, ЦУР, устойчивое развитие, управление проектами, инвестиционная привлекательность.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanishni ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib, ayniqsa turizm sohasida bu jarayon yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turizm iqtisodiyotning ko'p tarmoqli sohasi sifatida nafaqat iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlik, ijtimoiy farovonlik va hududiy rivojlanishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasini rivojlantirishda an'anaviy boshqaruv yondashuvlari bilan cheklanib qolish samarali natija bermasligi ayon bo'lib, zamonaviy barqaror boshqaruv konsepsiyalarini joriy etish zarurati ortib bormoqda.



So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investisiyalarni jalb etish va xizmatlar sifatini oshirishda davlat–xususiy sherikligi (DXSH) mexanizmlaridan foydalanish keng qo'llanilmoqda. DXSH loyihalari davlat resurslari bilan xususiy sektorning innovasion salohiyatini uyg'unlashtirish orqali turizm sohasida strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Biroq, mazkur loyihalarni boshqarish jarayonida iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas'uliyat va institusional shaffoflik masalalarini ham hisobga olish talab etilmoqda.

Mazkur sharoitda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals — SDGs) turizm sohasidagi DXSH loyihalarini boshqarish uchun muhim konseptual asos sifatida namoyon bo'lmoqda. ESG konsepsiyasi investisiya va boshqaruv qarorlarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillarini inobatga olishni nazarda tutsa, SDGs esa barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan global maqsadlar tizimini ifodalaydi. Ushbu ikki konsepsiyaning o'zaro uyg'unligi turizm sohasidagi DXSH loyihalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, turizm sohasida DXSH loyihalarini boshqarishda ESG tamoyillari va SDGs maqsadlarining o'zaro bog'liqligi yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan, ularni boshqaruv mexanizmlariga integratsiya qilish bo'yicha yagona ilmiy-metodologik yondashuvlar shakllanmagan. Bu esa DXSH loyihalarining barqarorlik darajasi, ijtimoiy samarasi va investisiya jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli, turizm sohasida davlat–xususiy sherikligi loyihalarini boshqarishda ESG va SDGs konsepsiyalarining o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini asoslab berish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Turizm faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda ushbu sohani rivojlantirishda DXSH mexanizmlarini qo'llash va tatbiq etish masalalari bir qator xorijlik, mustaqil davlatlar hamdo'stligi va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Jumladan, Turizmni rivojlantirish va turistik salohiyatni oshirishning nazariy-uslubiy masalalari V.I.Azar [1], E.I.Bogdanov [2], B.C.Bogolyubov [3], I.V.Zorin [4], H.I.Kabushkin [5], V.A.Kvartalnov [6], A.D.Chudnovskiy [7] kabi xorijlik olimlar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

O'zbekistonda turizm va turistik salohiyatni rivojlantirish hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari N.T.Tuxliev [8], M.Q.Pardaev [9], I.S.Tuxliev [10], M.M.Muxammedov [11], M.E.Po'latov, Q.J.Mirzaev [12], A.N.Norchaev [13], O.H.Xamidov [14], B.X.To'raev [15], M.T.Alimova [16], S.S.Ro'ziev [17], D.Z.Norqulova [18], A.K.Alimov [19]larning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda O'zbekistonda DXSHni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari sohalar kesimida respublikamizning bir guruh iqtisodchi olimlaridan N.Yusupov va F.Karabayev [20]lar BMT taraqqiyot dasturi doirasida DXSHning shakllanishi va rivojlanishining ayrim nazariy-uslubiy masalalarini, U.Djumaniyazov [21] esa uy-joy qurilishi sohasida DXSHni korporativ boshqarish jihatlarini tor doiradagi yo'nalish sifatida, shuningdek, J.Abdullayev [22] oliy ta'lim sohasida DXSH mexanizmlarini boshqarish masalalarini tadqiq qilganlar. Biroq, ushbu ilmiy izlanishlarda barqaror rivojlanish sharoitida turizm sohasida DXSHni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan tanlangan maqola mavzusi dolzarbligidan dalolat beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolamizni yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm sohasida davlat–xususiy sherikligi (DXSH) loyihalarini samarali boshqarish zamonaviy sharoitda barqaror rivojlanish konsepsiyalari bilan chambarchas bog'liq holda qaralmoqda. Xususan, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals — SDGs) turizm sohasidagi DXSH loyihalarini rejalashtirish, amalga oshirish va baholashda muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ESG va SDGs konsepsiyalari mazmunan o'zaro uyg'un va bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi. ESG asosan investisiya va korporativ boshqaruv darajasida qo'llanilib, ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va institusional shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, SDGs global



miqyosda barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy inklyuzivlik va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan strategik maqsadlar tizimini ifodalaydi.

Turizm sohasidagi DXSH loyihalarida ESG tamoyillarini joriy etish SDGs maqsadlariga erishishning amaliy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, ESGning ekologik komponenti SDGsning 12-maqsadi (mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish), 13-maqsadi (iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) va 15-maqsadi (quruqlik ekotizimlarini muhofaza qilish) bilan bevosita bog'liq. Ijtimoiy komponent esa turizm orqali bandlikni oshirish, mahalliy jamoalarni rivojlantirish orqali SDGsning 8 va 11-maqsadlariga xizmat qiladi. Boshqaruv (G) komponenti esa institusional samaradorlik va shaffoflikni ta'minlash orqali SDGsning 16-maqsadi bilan uyg'unlik kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Turizm sohasida DXSH loyihalarini boshqarishda ESG va SDGs konsepsiyalarining o'zaro bog'liqligi

ESG komponenti	Mos SDGs maqsadlari	Turizm sohasida DXSH loyihalarida namoyon bo'lishi	Boshqaruv samarasi
Environmental (E)	SDG 12 – Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish; SDG 13 – Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash; SDG 15 – Quruqlik ekotizimlarini muhofaza qilish.	Yashil mehmonxonalar, energiya samarador infratuzilma, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish	Ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhit xavflarini kamaytirish, loyihaning uzoq muddatli faoliyati
Social (S)	SDG 8 – Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish; SDG 11 – Barqaror shaharlar va jamoalar; SDG 10 – Tengsizlikni qisqartirish.	Mahalliy aholini ish bilan ta'minlash, inklyuziv turizm, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash	Ijtimoiy qabul qilinishi yuqori loyihalar, ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish
Governance (G)	SDG 16 – Samarali institutlar va adolatli boshqaruv; SDG 17 – Hamkorlik orqali rivojlanish.	Shaffof DXSH shartnomalari, hisobdorlik, davlat va xususiy sektor o'rtasida aniq vakolatlar taqsimoti	Institusional barqarorlik, investisiya risklarini kamaytirish
ESG kompleks ta'siri	SDGs integratsiyalangan maqsadlar tizimi	ESG standartlari asosida boshqariladigan DXSH turizm loyiholari	Investisiya jozibadorligi, barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samara

Amaliy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ESG va SDGs tamoyillarini hisobga olgan holda boshqarilayotgan turizm sohasidagi DXSH loyihalarini yuqori darajada barqarorlikka ega bo'ladi. Ekologik standartlarga rioya qilinishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlab, turistik hududlarda ekosistemaning degradatsiyasini cheklaydi. Bu esa turizm loyihalarining uzoq muddatli faoliyati va raqobatbardoshligini oshiradi.

Ijtimoiy jihatdan ESG va SDGs tamoyillariga asoslangan DXSH loyihalarini mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilib, ijtimoiy qabul qilinishi yuqori bo'ladi. Bu holat turizm sohasida ijtimoiy nizolar xavfini kamaytirish va loyihalarining institusional barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ESG va SDGs tamoyillariga muvofiq boshqarilayotgan DXSH loyihalarini investorlar uchun yanada jozibador hisoblanadi. Xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan investisiya qarorlarini qabul qilishda ekologik xavflar, ijtimoiy ta'sir va korporativ boshqaruv sifati muhim mezon sifatida qaralmoqda. Turizm sohasida ESG indikatorlariga ega bo'lgan DXSH loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va investisiya risklarini kamaytirish imkonini beradi.

ESG va SDGs konsepsiyalarini integratsiya qilish turizm sohasidagi DXSH loyihalarining ijtimoiy-ekologik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ekologik jihatdan energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va "yashil infratuzilma"ni joriy etish atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi. Ijtimoiy samaradorlik esa yangi ish o'rinlari yaratilishi, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish va inson kapitali sifatini oshirish orqali namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ESG va SDGs konsepsiyalarining o'zaro uyg'unligi turizm sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalarini samarali boshqarishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu konsepsiyalarni DXSH loyihalarini boshqarish mexanizmlariga tizimli ravishda integratsiya qilish loyihalarining barqarorligini ta'minlash, investisiya jozibadorligini oshirish hamda ijtimoiy-ekologik samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bu esa turizm sohasida barqaror rivojlanishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Turizm sohasida DXSH loyihalarini boshqarishda ESG–SDGs integratsiyalangan modelini joriy etish. DXSH loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish jarayonlariga ESG indikatorlari va SDGs maqsadlarini majburiy mezon sifatida kiritish taklif etiladi. Bu loyihalarning iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik natijalarini ham kompleks baholash imkonini beradi.

2. ESG asosida investisiya jozibadorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Turizm sohasidagi DXSH loyihalarini uchun ESG hisobotlarini joriy etish, xalqaro standartlarga muvofiq monitoring va baholash tizimini shakllantirish orqali xalqaro moliyaviy institutlar va strategik investorlarni jalb etish imkoniyatlari kengaytirilishi maqsadga muvofiq.

3. Ijtimoiy-ekologik samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish. Turizm sohasidagi DXSH loyihalarini uchun ekologik ta'sir, ijtimoiy foyda va mahalliy jamoalar rivojiga qo'shilayotgan hissani aks ettiruvchi maxsus indikatorlar tizimini joriy etish taklif etiladi. Bu loyihalar samaradorligini aniq va shaffof baholashga xizmat qiladi.

4. Institutsonal va huquqiy bazani ESG va SDGs talablari asosida takomillashtirish. Turizm sohasida davlat–xususiy sherikligiga oid normativ-huquqiy hujjatlarga ESG tamoyillari va SDGs maqsadlarini integratsiya qilish orqali boshqaruvning institusional barqarorligini oshirish tavsiya etiladi.

5. Davlat va xususiy sektor uchun malaka oshirish va bilimlar almashinuvini kuchaytirish. Turizm sohasida DXSH loyihalarini amalga oshirayotgan sub'yektlar uchun ESG va barqaror rivojlanish bo'yicha o'quv dasturlari va treninglarni joriy etish loyihalarni samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ESG va SDGs konsepsiyalarini turizm sohasida davlat–xususiy sherikligi loyihalarini boshqarish mexanizmlariga tizimli ravishda integratsiya qilish sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash, investisiya jozibadorligini oshirish hamda ijtimoiy-ekologik samaradorlikka erishishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari turizm sohasida barqaror rivojlanishga qaratilgan davlat siyosati va strategik qarorlarni qabul qilishda ilmiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азар В.И. Экономика и организация туризма. М.: Профиздат, 1993.;
2. Е. И. Богданов, Е. С. Богомолова, В. П. Орловская. Экономика отрасли. Туризм: учебник. - М.: ИНФРА - М, 2013. - 318 с.;
3. В.С.Боголюбов, С.А. Быстров, С.А.Боголюбова. Экономическая оценка инвестиций в развитие туризма. Уч. пос. .М.: Академия 2009.;
4. Зорин И.В., Каверина Т.П., Квартальнов В.А. Туризм как вид деятельности // Учебник. М.: ФиС. 2005. – 288с.;
5. Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: учебник / 6-е изд., стер. - Мн.: Новое издание, 2006. - 408 с.;
6. Квартальнов В.А. Туризм: Теория и практика: Избр. труды: В 5 т. - Т.4. Иностранный туризм. - М.: ФиС, 1998. – 312 с.;
7. Биржаков М.Б., Чудновский А.Д. Управление индустрией туризма России в современных условиях: уч.пособие. М.: КНОРУС, 2007. - 416 с.;
8. Тухлиев Н.Т., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. -Т.: Гос. Науч. Изд. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006. - 386 с.;
9. Пардаев М.Қ. Туризмни режалаштириш. Дарслик. Т.: “Иқтисод ва молия” 2008. – 262 б.;
10. Болтабоев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт” фанидан дарслик. – Т.: “Фан ва технология”. 2018-412 б.;
11. Мухаммедов М.М., Рахматов Ф. Туризм соҳасида бозор муносабатларининг шаклланиши ва унинг тармоқ самарадорлиги кўрсаткичларига таъсири. //Сервис ва туризм: Бошқариш ва ривожлантириш муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Самарқанд, 2007.;
12. Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж, Султонов Ш.А, Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма. Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.;
13. Норчаев А.Н. Халқаро туризмни ривожлантиришнинг иқтисодий ўсишга таъсири. Иқт. фан. номз...дисс. 2004. – 120 б.;
14. Ҳамидов О.Ҳ. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлан-тиришни бошқариш механизмни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2017.;
15. Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. - Т.:Фан, 2009.,
16. Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. Монография. Иқтисодиёт, - Тошкент, 2015. – 300 б.;
17. Рўзиев С.С. Ўзбекистон маданий туризм бозори ва унинг истиқболлари. Иқт. фан...дисс. – Тошкент, 2009.;
18. Норқулова Д.З. Ўзбекистонда социал туризм хизматларини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмни такомиллаштириш. (Ph.D) фалсафа доктори. дисс. автореф Самарқанд, 2018.;
19. Алымов А.К. Қорақалпоғистон Республикасида экологик туризмни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари ва истиқболлари. (Ph.D) фалсафа доктори.дисс.автореф Самарқанд, 2018.



20. Юсупов Н., Карабаев Ф. Теория и практика государственно-частного партнерства. Учебный модуль. / Под. редак. А.Э.Шайхова. – Т., 2013. www.undp.uz
21. Джуманиязов У.И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида уй-жой қурилиши соҳасида корпоратив бошқарув механизмларини такомиллаштириш. И.ф.ф.д. ... дис. автореф. – Т.: ТДИУ, 2018. – 27 б.
22. Абдуллаев Ж.А. Олий таълим тизимида давлат-хусусий шериклиги механизми ривожланишини бошқариш. И.ф.ф.д. ... дис. автореф. – Т.: ТДИУ, 2023. – 29 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>